

**O'ZBEKISTONDA QOBUZ BAS SINIFINING RIVOJLANISHIDA
PROFESSOR JAHONGIR IBRAGIMOVNING TUTGAN O'RNI**

Rahimov Abror Yuldashxonovich

O'zbekiston davlat Konservatoriyasi

Xalq cholg'ulari bo'limi Qobuzbas cholg'usi

Annotatsiya: Mazkur maqolada professor Jahongir Ibragimovning qobuz bas cholg'usi san'ati rivojiga qo'shgan hissasi bayon etilgan bo'lib, ilmiy va ijodiy izlanishlari haqida so'z yuritildi. Ustoz san'atkorning ijrochilik mahorati va ilmiy merosini yoritib berish maqolaning bosh vazifalaridandir.

Kalit so'zlar: qobuz bas, san'at, faxriy inson, g'ijjak, torli asbob, san'atga hissasi.

KIRISH

Xalqimizning milliy-ma'naviy merosini musiqa san'atisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Azal-azaldan ajdodlarimiz tomonidan yaratilib, qad riyatlar sifatida shakllanib kelinayotgan milliy urf-odatlarimiz, an'anaviy tarzda avlodlardan avlodlarga o'tib, xalqimizning buyuk ma'naviy dunyosini namoyon etib kelmoqda.

Xalq musiqa ijodiyoti, musiqa sohasidagi yozma manbalar, bastakorlik san'ati, kasbiy musiqa ijodiyoti bunga yorqin misoldir. Chunonchi, bu jarayon musiqa san'atining barcha kasbiylik ahamiyatiga ega bo'lgan tarmoqlari uchun asos bo'lib xizmat qilib kelmoqda.¹

O'zbek xalq musiqa va cholg'u ijrochiligi merosi boy va uzoq o'tmishga ega. Uning ildizlari ming yillik tarixga egaligi manbalarda zikr etib kelinadi.

O'zbekistonda cholg'u ijrochiligining qobuz bas yo'nalishi rivojlanishiga ustozimiz professor Jahongir Ibragimov juda katta hissalar bor.

Ustozim Jahongir Akbarovich Ibragimov 1951- yili Toshkent viloyati Ohangaron tumanida o'qituvchilar, ziyolilar oilasida dunyoga kelgan. Otalari Akbarxon 45 yil maktab direktorlik lavozimida ishlaganlar. Onasi Faxridinova Musavvarxon boshlangich sinf oqituvchisi bo'lgan. Oilada 3 ta o'g'il 2 taqiz bo'lgan. 1959-yilda Furqat nomidagi 42- umumta'lim maktabiga oqishga kirdi. 1961-yildan 2-sinf dan R. Glier nomidagi Respublika maxsus musiqa akademik-lyseyiga vilolonchel mutaxassisligiga qabul qilingan. Ustozning 1-o'qituvchisi Rixirt Shmirt bo'lgan. 5-sinf dan o'qituvchisi boshqa yutga ketganligi sababli Bek Muhammedovdan tahsil ola boshlagan. O'quv davomida 1967-yilda 7-sinf paytida Praga Chexa-Slova shaxrida "Konsertino praga" konkursida qatnashib 2-o'rin sohibi bo'lgan.

¹ Z.M.Yakubov. "Cholg'u ijrochiligi (g'ijjak cholg'usi)". Samarqand-2021. 45-b.

Konsertoriyada 5 yil taxsil olgan paytlarida Mstislav Leopoldovich Rastrapovich hamda professor Pekker bilan ustoz saboqlarini oʻtgan. Konservatoriyaning tamomlaganda Muxtor Ashrafiy hamda konservatoriyaning rektori birgalashib Ustozim Jahongir Akbarovichga Moskva konservatoriyasiga asperanturaga oʻqishga yoʻllanma berishgan. Ustozimning oilaviy sharoiti toʻgʻri kelmaganligi sababli oʻqishga bora olmagan. Konservatoriyaning 1975 tamomlagan. 2004- professorlik lavozimini hamda 2006- yil Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan yoshlar murabiyi unvonini oldi.

Bugungi kunda R. Glier nomidagi Respublika maxsus musiqa akademik-litseyida musiqa boʻlim mudiri va Oʻzbekiston Davlat konservatoriyasining “Oʻzbek xalq cholgʻulari” kafedrasida professori lavozimida faoliyat koʻrsatib kelmoqda.

Ibragimov Jahongir Akbarovich Oʻzbekiston davlat konservatoriyasini 1975 yili violonchelcholgʻusi mutaxassisligi boʻyicha orkestr fakulteti, kamonli torli cholgʻulari boʻlimini orkestr solisti, oʻqituvchi, kontsertmeyster kvalifikatsiyasi boʻyicha bitirdi. 1971 yil 16 yanvardan Glier nomli OʻMMIga oʻqituvchi, 1972 yil sentyabrdan OʻzDKda kontsertmeyster, 1985 yildan oʻzbek xalq cholgʻulari kafedrasiga oʻqituvchi boʻlib kelgan. 1993 yil dotsent lavozimiga ega boʻldi. 2004 yildan professor vazifasini bajaruvchi lavozimida ishlab kelyapti.

Xalq cholgʻulari ijrochilik kafedrasida oʻqituvchilik, ilmiy-uslubiy ijodiy, kontsert-ijrochilik va jamoatchilik faoliyatini 1985 yildan boshladi. 34 -yil ichida 100dan ortiq shogird mutaxassislar tayyorlab yetishtirdi.

Bugungi kunda oʻzbek musiqasida cholgʻu musiqasi muhim oʻrin egallab kelmoqda. Xalq cholgʻularimizning betakrorligi, naqsh bezagining jozibadorligi, ovoz tarovatining rang-barangligi va ijro imkoniyatlarining beqiyosligi bilan milliy musiqiy madaniyatimizda alohida oʻrin tutmoqda. Zamonaviy ijrochilik talab darajasiga moslashtirilgan gʻijjak asosida gʻijjak prima, gʻijjak alt, gʻijjak bas va gʻijjak kontrabaslardan tashkil topgan gʻijjaklar oilasi hamda qobuz prima, alt, bas va kontrabaslardan tashkil topgan qobuzlar oilasi yaratildi.

1969 yildan boshlab, har yili yakkanavo ijrochi sifatida hamda violonchelchilar ansambli bilan Oʻzbekiston davlat konservatoriyasi, A. Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti, Hamza nomidagi musiqa kolleji va boshqa oliy taʼlimgozlarning katta va kichik zallarida oʻtkaziladigan kontsertlarda qatnashib kelmoqda, ijro dasturlarida oʻzbek xalq mumtoz musiqasi, MDX xalqlari musiqasi, xorijiy va Oʻzbekiston kompozitorlarining original asarlari, shuningdek, oʻzining ijodidan, gʻijjak-bas va fortepiano uchun moslashtirilgan asarlar ham keng oʻrin olgan.

XULOSA

Bir soʻz bilan aytganda professor, davlat arbobi Jahongir Ibragimovning qobuz bas ijro etish sanʼatiga qoʻshgan hissasi benihoyat kattadir. Jahongir Ibragimovning salohiyatini belgilovchi omillar: tafakkurning chuqurligi, isteʼdodi, musiqiy iqtidori,

mashaqqatli mehnati va taniqli, yirik ustozlar qo‘li ostida ta‘lim-tarbiya topganligi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Z.M.Yakubov. “Cholg`u ijrochiligi (g`ijjak cholg`usi)”. Samarqand-2021. 45-b.
2. Xudoev G‘.M “G‘ijjak saboqlari” 1-2-kitoblar, G‘ofur-G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijod uyi, Toshkent, 2016.
3. Akbarov I. “Musiqalug‘ati” T.: O‘qituvchi, 2017.
4. Toshmuhammedov M. “G‘ijjakda an‘anaviy ijrochilikni o‘zlashtirish” T.: O‘qituvchi, 2015.
5. www.wikipedia.ru
6. www.arxiv.uz
7. www.elibrally.uz